

strategik rejalashtirish va bozor sharoitlarini chuqur tahlil qilish asosida qabul qilinishi lozim.

Rivojlanayotgan fond bozorlari, xususan O'zbekiston sharoitida, splitlash amaliyoti hozircha keng qo'llanilmayapti. Buning asosiy sabablari sifatida aksiyalar narxining nisbatan past darajada shakllanishi va ikkilamchi bozor likvidligining yetarli emasligini ko'rsatish mumkin. Toshkent Respublika fond birjasi faoliyatida ko'plab aksiyalar o'rtacha narx segmentida savdo qilinadi, shu bois splitlashga ehtiyoj nisbatan kam seziladi. Biroq kelgusida bozor kapitalizatsiyasi va investorlar faolligi oshgan sari mazkur instrument dolzarblik kasb etishi mumkin.

Umuman olganda, aksiyalarni splitlash korporativ moliya tizimida muhim kommunikativ va bozor instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. U kompaniyaning kapitallashuvini bevosita oshirmasa-da, kapital bozoridagi pozitsiyasini mustahkamlash, investorlar sonini ko'paytirish va savdo faolligini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, uning samaradorligi kompaniyaning fundamental barqarorligi va bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 03.06.2015 yildagi O'RQ-387-son
2. S.E.Elmirzayev va boshqalar *Moliya bozori. Darslik.* – Toshkent "Iqtisod-Moliya" - 2019
3. <https://new.openinfo.uz/home>
4. <https://finviz.com/quote.ashx?t=AGIO&p=d>
5. <https://finance.yahoo.com/quote/AGIO/>
6. app.jett.uz
7. tradingview.com

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING MUOMALA XARAKTERI BO'YICHA TASNIFLANISHI

Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

Adxamjonov Shoxbozbek Bobirjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrasi assistenti

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti shunday darajaga yetdiki, u qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ushbu bozor shunchaki aksiya yoki obligatsiyalar oldi-sotdi qilinadigan joy emas, balki bo'sh turgan

kapitalni samarali yo'naltirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va investitsiya muhitini shakllantirishning asosiy mexanizmidir. Qimmatli qog'ozlar bozori o'zining tarkibiy tuzilishi, ishtirokchilari va moliyaviy instrumentlari bilan nihoyatda murakkab va ko'p qirrali tizimni tashkil etadi. Bu tizimni to'g'ri tushunish va unda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun, avvalo, uning ichki tasniflanishini (klassifikatsiyasini) chuqur tahlil qilish lozim. Bozorning qanday mezonlarga ko'ra bo'linishi (masalan, muomala muddati, emitent turi yoki savdo tashkil etilishi bo'yicha) investorga o'z strategiyasini aniq belgilash va xatarlarni to'g'ri baholash imkonini beradi. Ushbu maqolada biz qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy turlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini va iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini batafsil ko'rib chiqamiz. Biz birja va birjadan tashqari bozorlarning farqlari, birlamchi va ikkilamchi bozorlarning o'zaro bog'liqligi hamda bugungi kunning zamonaviy talablariga muvofiq bozorning yangicha tasniflanish tamoyillariga to'xtalib o'tamiz.

Muomala xarakteri bo'yicha	
Birlamchi bozor	Ikkilamchi bozor
Tashkil etilish shakli bo'yicha	
Birja (uyushgan)	Birjadan tashqari (uyushmagan)
Muddati bo'yicha	
Pul bozori	Kapital bozori

1-rasm. Qimmatli qog'ozlar bozorining tasniflanishi

Ta'kidlash joizki qimmatli qog'ozlar kompaniyalar investorlarga (omnaviy) aksiyalar, qarz qimmatli qog'ozlari va boshqalar kabi qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali mablag' jalb qilishlari mumkin bo'lgan joy, shuningdek, investorlar turli xil qimmatli qog'ozlarni sotib olishlari yoki sotishlari mumkin bo'lgan joy sifatida bugungi moliya bozorining asosiy tarkibiy qismlaridandir.

Birlamchi bozor: Bu bozor yangi emissiya bozori deb ham ataladi, bu yerda kompaniya va muassasalar yangi qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali jamoatchilikdan mablag' (kapital) jalb qiladi.

Ikkilamchi bozor: Qimmatli qog'ozlar birlamchi bozorda chiqarilgandan so'ng, ular fond birjalarida ro'yxatga olinadi va investorlar ushbu ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlarni ushbu fond birjalari orqali sotib olishlari yoki sotishlari mumkin.

Birjaviy bozor: Xaridor va sotuvchi bevosita uchrashmasdan, ma'lum bir qoidalar asosida qimmatli qog'ozlar aksiya, obligatsiya, valyuta yoki tovar (oltin, neft, bug'doy) savdo qiladigan maxsus maydoncha bo'lib dunyo iqtisodiyotining "yuragi" bo'lib, unda narxlar talab va taklif asosida soniyalarda o'zgarib turadi.

Birjadan tashqari bozor yoki OTC market (Over-the-Counter): Agar oddiy birjani markazlashgan do'kon deb tasavvur qilsak, OTC bozor bu xaridor va

sotuvchining to'g'ridan-to'g'ri, o'rtada rasmiy birja maydonchasisiz kelishishi hisoblanadi ushbu holatda savdolar brokerlik tarmoqlari, telefon yoki maxsus elektron platformalar orqali amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlar bozorining muomala xarakteri bo'yicha tasniflanishi (birlamchi va ikkilamchi bozor, uyushgan va uyushmagan bozor, birja va birjadan tashqari savdolar) nazariy jihatdan aniq belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda bir qator muammolar mavjud. Xususan, birlamchi va ikkilamchi bozor o'rtasidagi institutsional bog'liqlik yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozordagi likvidligi past bo'lsa, investorlarning birlamchi joylashtirishdagi faolligi ham susayadi. Natijada kapital jalb qilish samaradorligi kamayadi. Bundan tashqari, uyushgan (birja) va uyushmagan (OTC) segmentlar o'rtasida axborot shaffofligi darajasi turlicha. Masalan, Toshkent Respublika fond birjasi maydonida axborot ochiqligi va listing talablari aniq belgilangan bo'lsa, birjadan tashqari bitimlarda narx shakllanishi va ma'lumotlar ochiqligi nisbatan cheklangan. Bu esa bozor ishtirokchilari uchun axborot asimmetriyasi muammosini yuzaga keltiradi. Muomala xarakteriga ko'ra tasniflangan segmentlar o'rtasida likvidlik notekis taqsimlangan. Ayniqsa, ikkilamchi bozorda savdo hajmining pastligi qimmatli qog'ozlarning bozor bahosini shakllantirish mexanizmini to'liq ishlashiga to'sqinlik qiladi. Bu esa investitsion risklarning oshishiga olib keladi. Chakana investorlarning moliyaviy savodxonligi yetarli darajada emasligi sababli, ular birja va birjadan tashqari bozor o'rtasidagi farqlarni to'liq anglamaydi. Natijada yuqori riskli operatsiyalarda ishtirok etish ehtimoli ortadi.

Xulosa qilib aytganda Qimmatli qog'ozlar bozorining muomala xarakteri bo'yicha tasniflanishi moliya tizimining institutsional tuzilishini aniqlab beruvchi muhim nazariy va amaliy mexanizmdir. Mazkur tasnif bozor ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, kapital harakatining yo'nalishini belgilaydi hamda investitsion jarayonlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Birlamchi bozor iqtisodiyot uchun yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish vositasi sifatida strategik ahamiyatga ega. Aynan shu segment orqali korxonalar va davlat moliyaviy ehtiyojlarini qoplaydi. Ikkilamchi bozor esa likvidlikni ta'minlab, investorlarga o'z aktivlarini erkin sotish imkonini beradi. Agar ikkilamchi bozor yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, birlamchi bozor ham to'liq samarali ishlamaydi. Demak, ushbu ikki segment o'zaro chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizimdir. Uyushgan (birja) bozor shaffoflik, standartlashtirilgan savdo qoidalari va davlat nazorati bilan ajralib turadi. Bu investorlar huquqlarini himoya qilish va narx shakllanishining adolatli mexanizmini ta'minlashga xizmat qiladi. Uyushmagan (OTC) bozor esa moslashuvchanlik va operativlikni ta'minlaydi, biroq unda risk darajasi nisbatan yuqori bo'lishi mumkin. Shu sababli har ikki segment o'z funksional vazifasiga ega

bo'lib, ular o'rtasida muvozanatli rivojlanish zarur. Rivojlanayotgan bozorlar sharoitida muomala xarakteri bo'yicha segmentlarning to'liq va samarali ishlashi uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- ikkilamchi bozor likvidligini oshirish;
- axborot oshkoraligini kuchaytirish va yagona ma'lumot bazasini shakllantirish;
- institutsional investorlar ulushini kengaytirish;
- chakana investorlar moliyaviy savodxonligini oshirish;
- raqamli savdo infratuzilmasini takomillashtirish.

Umuman olganda, qimmatli qog'ozlar bozorining muomala xarakteri bo'yicha to'g'ri tashkil etilishi kapitalning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi, investitsion faollikni oshiradi va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Bozor segmentlari o'rtasidagi uzviylik, shaffoflik va likvidlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, moliya tizimining barqarorligi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Ilmiy jihatdan qaraganda, mazkur tasnif nafaqat tashkiliy ajratish vositasi, balki bozor samaradorligini baholash mezonini ham hisoblanadi. Muomala xarakteri bo'yicha segmentlar o'rtasidagi nisbat va faoliyat darajasi mamlakat moliya bozorining rivojlanish bosqichini aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun ushbu yo'nalishda chuqur institutsional islohotlar va infratuzilmani rivojlantirish kelgusida kapital bozorining barqaror va raqobatbardosh tizimga aylanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 03.06.2015 yildagi O'RQ-387-son
2. S.E.Elmirzayev va boshqalar Moliya bozori. Darslik. – Toshkent "Iqtisod-Moliya" - 2019
3. <https://new.openinfo.uz/home>
4. <https://finviz.com/quote.ashx?t=AGIO&p=d>
5. <https://finance.yahoo.com/quote/AGIO/>
6. app.jett.uz
7. tradingview.com

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY QARASHLARI

O'ramov Jaxongir Jurayevich

Qarshi davlat texnika universiteti

Moliya va bank ishi kafedrasi v.b dotsenti

Annotatsiya. Tezisdan raqamli iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonlari sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash va